

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

MIRZO ULUG'BEKNING HAYOTI VA ILM FANGA QO'SHGAN XISSASI

Hayitov G`ofur Bahridin o`g`li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tarix fakulteti
Sirtqi Tarix o`qitish metodikasi yo`nalishi 4 bosqich talabasi 402-guruh

Annotatsiya

Ushbu maqolada Mirzo Ulug'bekning hayoti va hukumdorligi hamda matimatika, geografiya va astranomiya faniga katta xissa qoshganligi to'g'risida ma'lumotlar berilgan

Kalit so'zlar: Buyuk, o'g'li, o'lim, ta'lim, hokim, mashhur, astranom, rasadxona

Mirzo Muhammad ibn Shohruh ibn Temur Ulug'bek Qo'rag'oniy (1394-1449) – buyuk astronom va matematik, o'z davrining atoqli Movaraunnahrni allomasi, davlat arbobi, 1441-1449 yillar boshqargan, mashhur hukmdor va sohibqiron Amir Temurning nabirasi. Ulug'bek (Muhammad Tarag'ay) 1394 yil 22 mart kuni hozirgi Ozarbayjon hududidagi Sultoniya shahrida tavallud topgan. 1405 yil, Markaziy Osiyodan tashqari, Yaqin va O'rta Sharqning barcha hududi, O'rtayer dengizidan Shimoiy Hindistongacha bo'lgan katta yerni o'z ichiga olgan ulkan saltanatni yaratgan buyuk sohibqironning o'limidan so'ng, butun merosiy mulki uning o'g'il va nabiralarga o'tadi. Temuriylar saltanatining tepasiga Hirot qarorgohida saylangan Temurning o'g'li – Shohruh o'tiradi. Mavaraunnahr boshqaruvi Shohruhning to'ng'ich o'g'li, Amir Temurning nabirasi Ulug'bekka topshiriladi. 1409 yil Ulug'bek Samarqand hokimi etib e'lon qilinadi, otasi Shohruhning o'limidan so'ng, 1447 yil Temuriylar sulolasiga bosh bo'ladi. Yoshligida Ulug'bek fan va san'at turlariga, ayniqsa, matematik va astronomiyaga katta qiziqish bildiradi. Uning aqliy dunyoqarashi kengayishida otasi va bobosi to'plagan boy kutubxona zamin bo'ldi, u yerda ko'p vaqtini o'tkazardi. Ulug'bek u vaqtlar o'lchovi bilan qaraganda, juda zo'r ta'lim olgan. Ajoyib xotira egasi bo'lib, u arab va fors tilini erkin egallagan, turk she'riyatini yaxshi bilgan, adabiy uslublarni egallagan va adabiy bahslarda ishtirok etgan. O'zi ham she'rlar yozgan. Ulug'bekning ustozlari taniqli olim, Temuriylar saroyidagi mashhur matematik va astronom Qozizoda Rumi bo'lgan. U to'qqiz yasharli Ulug'bekka Marog'adagi mashhur rasadxona xarobalarini ko'rsatgan. Yoshlikdagi aynan shu xotiralari bo'lajak astronom

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

kelajagini belgilagan bo'lishi mumkin. Ulug'bek davrida Samarqand o'rta asrlar davridagi ilm-fan o'choqlaridan biriga aylangan.¹

Samarqand shahridagi tepaliklaridan birida g'ayrioddiy inshoot bor. U besh asrdan ko'proq vaqt oldin qurilgan bo'lib, Ulug'bek rasadxonasi hisoblanadi. Bu inshoot O'rta asr astronomiyasida katta yutuqlarga erishish imkonini berdi²

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan 1994-yil Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan mamlakatimizda katta tantanalar va xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazildi. Parijda ham YuNESKO qarori bilan uchrashuvlar va konferensiyalar bo'lib o'tdi. Ulug'bek 1394 yilning mart oyida Eronning g'arbidagi Sultoniya shahrida, bobosi Temurning harbiy yurishi paytida tug'ildi. U Shohrux Mirzoning to'ng'ich o'g'li bo'lib, unga Muhammad Tarag'ay ismi berilgan, lekin bolaligidayoq u Ulug'bek deb atala boshlab, bu ism keyinchalik uning asosiy ismi bo'lib qoldi. Ulug'bekning bolalik yillari bobosi Temurning harbiy yurishlarida o'tdi. 1405-yil Xitoyga qilinayotgan yurish boshida Temur vafot etgach, ikki yil davomida uning avlodlari o'rtasida taxt uchun kurash davom etdi va bu kurashda Temurning kenja o'g'li Shohruxning qo'li baland keldi. Lekin Shohrux o'ziga poytaxt qilib Hirotni tanlab, Movarounnahr poytaxti Samarqandni esa o'g'li Ulug'bekka topshirdi. Shunday bo'lsa ham Shohrux Eron va Turonning yagona xoqoni deb hisoblanardi³

Mirzo Ulug'bek 1409-yildan Boshlab Movarounnahr hokimi bo'lgan. U payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning "Beshikdan qabrgacha ilm izla", degan hadislariga doimo amal qilgan. Ulug'bek Ahmad Farg'oniy, Forobiy, Muso Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyomasarlarini o'rganadi. Bu mutafakkirlar orqali yunon olimlari Aflotun, Arastu, Gipparx, Ptolomey bilan tanishadi. G'iyosiddin Jamshid Koshoniyning yozishicha, Ulug'bek Donishmand bo'lgan. Qur'oni karimning aksariyat qismlarini yoddan bilgan. Ulug'bek Davrida Samarqand shahri yanada ravnaq topgan. Shaharda hunarmandchilik, Me'morlik, adabiyot, umuman ilm-fan yuksaldi, savdo taraqqiy etdi. Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat-ush shuaro" sida shunday yozgan; "Olim, odil, g'olib va Himmatli podshoh Ulug'bek Ko'ragon yulduzlar ilmida osmon qadar yuksalib bordi, Maoniy ilmida qilni qirq yordi. Uning davrida fozillar martabasi cho'qqiga Ko'tarilgan. Fozillaru hakimlarning yakdil fikrlari shuki, islomiyat zamonida, balki

¹ [https://arboblar.uz/uz/people/mirzo-ulugbek\(15.02.2024\)](https://arboblar.uz/uz/people/mirzo-ulugbek(15.02.2024))

² <https://uzbekistan.travel/uz/o/yulduzlar-va-sayyoralarni-izlovchi-mirzo-ulugbek/> (15.02.2024)

³ <https://oyina.uz/uz/generation/43>



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Iskandar Zulqarnayn davridan to shu damgacha Ulug‘bek Ko‘ragondek olim va Podshoh saltanat taxtida o‘tirmagan. U otasi Shohruh bahodir hukmronligi davrida Samarqand va Movarounnahrni qirq yil mustaqil idora etdi.” Ulug‘bek Buxoroda(1417), Samarqandda(1420), G‘ijduvonda(1432-33)madrasalar va Marvda Hayriya muassalarini barpo qildirgan. Madrasalarda diniy fanlar bilan birgalikda Dunyoviy fanlar ham o‘qitildi, ko‘proq aniq fanlarga e‘tibor qaratildi. Ulug‘bek O‘rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini O‘rta Osiyo sharoitida dunyo fanining eng Yuqori pog‘onsiga olib chiqdi. Uning qilgan eng buyuk ishi—Samarqand ilmiy Maktabini o‘sha davr akademiyasini barpo etganligi bo‘ldi. Bu ilmiy maktabda 200 Dan ortiq olimlar faoliyat olib borgan. Ular orasida eng yiriklari Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy edi. Ulug‘bek Samarqand yaqinidagi Ko‘xak(Cho‘ponota) tepaligida rasadxona barpo ettirdi.⁴

Xulosa

Mirzo Muhammad ibn Shohruh ibn Temur Ulug‘bek Qo‘rag‘oniy (1394-1449) – buyuk astronom va matematik, o‘z davrining atoqli allomasi, davlat arbobi, Movaraunnahrni 1441-1449 yillar boshqargan, mashhur hukmdor va sohibqiron Amir Temurning nabirasi. Biroq Ulug‘bekning davlat boshqaruvidagi mahorati uning ilmiy tajribasi bilan teng kelmasdi. O‘zining qisqa hukmronligi davrida u o‘z kuch va hokimiyatini o‘rnata olmadi. Natijada, uning nazoratsizligidan boshqa hukmdorlar, jumladan, uning oilasi foydalanishdi va keyinchalik u ag‘darilib, o‘ldirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://arboblarn.uz/uz/people/mirzo-ulugbek>(15.02.2024)
2. <https://uzbekistan.travel/uz/o/yulduzlar-va-sayyoralarni-izlovchi-mirzo-ulugbek/> (15.02.2024)
3. <https://oyina.uz/uz/generation/43>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/mirzo-ulug-bekning-jahon-ilm-faniga-qo-shgan-hissasi>(15.02.2024)

⁴ <https://cyberleninka.ru/article/n/mirzo-ulug-bekning-jahon-ilm-faniga-qo-shgan-hissasi>(15.02.2024)

